



O'ZBEK SHE'RIYATIDA QUYOSH OBRAZI IFODASI

Xoshimova Gavxarbonu Begzod qizi,
Qarshi davlat universiteti 3-bosqich talabasi.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1616>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 56

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

ramziylik, badiiy talqin, lirik qahramon, metafora, nazm, obraz, she'riyat

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada XX asr ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatining yirik vakillari – Usmon Azim, Shavkat Rahmon va Rauf Parfi ijodida quyosh obrazining poetik funksiyalari, semantik qatlamlari va ramziy ma'nolari qiyosiy-tahliliy jihatdan o'rganiladi. Tadqiqotda quyosh obrazi shoirlar badiiy tafakkurining muhim komponenti sifatida ko'rib chiqilib, uning hayot, erkinlik, ruhiy iztirob va falsafiy mushohada bilan bog'liq talqinlari yoritiladi. Shuningdek, quyosh obrazining mifopoetik ildizlari va zamonaviy she'riyatdagi transformatsiyasi ham tahlil etiladi. Natijada har bir shoir ijodida ushbu obrazning individual estetik yuklamasi va badiiy ifoda imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, maqolada quyosh obrazining o'zbek she'riyat taraqqiyotidagi transformatsiyasi, uning an'anaviy va zamonaviy poetik tizimdagi o'rni hamda estetik funksiyalarining o'zgarishi masalalari ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu obraz turli ijodkorlar ijodida nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki milliy ruh, tarixiy xotira va ma'naviy izlanishlarni ifodalovchi muhim ramziy tizim sifatida shakllangan.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 56

KEYWORDS

symbolism, artistic interpretation, lyrical hero, metaphor, verse, image, poetry

ANNOTATION

This article studies the poetic functions, semantic layers and symbolic meanings of the image of the sun in the works of prominent representatives of Uzbek poetry of the second half of the 20th century - Usman Azim, Shavkat Rahmon and Rauf Parfi - in a comparative and analytical manner. The study considers the image of the sun as an important component of the poets' artistic thinking, and highlights its interpretations related to life, freedom, spiritual suffering and philosophical observation. The mythopoetic roots of the image of the sun and its transformation in modern poetry are also analyzed. As a result, the individual aesthetic load and possibilities of artistic expression of this image in the work of each poet are revealed. The article also considers the transformation of the image of the sun in the development of Uzbek poetry, its place in the traditional and modern poetic system, and the changes in its aesthetic functions. The results of the study show that this image has been formed in the work of various artists not only as a means of artistic representation, but also as an important symbolic system that represents the national spirit, historical memory, and spiritual quest.

Kirish. O'zbek adabiyoti, xususan, XX asrning ikkinchi yarmi va mustaqillik davri she'riyati o'zining rang-barang obrazlar tizimi, falsafiy teranligi va badiiy kashfiyotlari bilan ajralib turadi. Ushbu davr ijodkorlari nafaqat an'anaviy lirik obrazlarga yangicha ruh bag'ishladilar, balki ularni milliy va ijtimoiy-siyosiy g'oyalarning tashuvchisiga aylantirdilar. Ana shunday fundamental obrazlardan biri – quyosh obrazidir. "Quyosh – barcha xalqlarga ma'lum bo'lgan eng qadimgi kosmik ramz; hayot manbai, yorug'likni bildiradi. Quyosh ramzlari bilan ustuvorlik, hayot yaratish, faollik, qahramonlik negizi, hamma narsani bilish kabi xususiyatlar bog'lanadi". [1 - 6] XX asrning 60-70-yillar she'riyatida quyosh obrazini insoniy munosabatlarni aks ettirishda, ijtimoiy-intim munosabatlar mavzusidagi she'rlardagi ruhiy ehtiyojni to'ldira oladigan mamba sifatida yangicha talqinini shakllantira boshladi. Mirmemir, Asqad Muxtor kabi shoirlar bilan bir qatorda Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva kabilar ijodida bu obraz o'ziga xos munosabatga uchradi. Endi sho'rolar partiyasining maddohona she'riyatining qahramon obrazi emas, balki ijtimoiy turmushdagi individlarning o'zaro munosabatlaridagi ma'naviy ehtiyojni qondiruvchi homiy obraz sifatida ko'rinish boshladi. Bu jarayon asta – sekinlik bilan oxir – oqibat jamiyatdagi bu ehtiyojning sabab va oqibatlarini ijodiy laboratoriyada tahlil qilish orqali tashxisining kashf etilishiga olib keldi. Bu ijtimoiy-individual ehtiyojlar birlashuvi, qo'shiluvi natijasida xalqning asl irodasi gavdalandi. Bu – erk edi. Shunday qilib, XX asrning oxirlariga kelib quyosh obrazi yana erk timsolida gavdalana boshladi. Uning mustaqillikka erishguncha bo'lgan davrdagi qator she'rlardagi yetakchi obraz sifatidagi ishtiroki nihoyatda faollashdi. Lirik qahramon badiiy falsafasi bo'lmish erk mavzusi quyosh obrazi keng talqin etildi. Buni, ayniqsa, Rauf Parfi, Halima Xudoyberdieva, Usmon Azim, Azim Suyun, Shavkat Rahmon kabi qator ijodkorlar ijodida kuzatishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek adabiyotshunosligida poetik obrazlar, xususan, ramziy timsollarni o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar mavjud. Mazkur maqolada asosiy nazariy tayanch sifatida D. Mingboeva, D. Quronov, Q. Yo'ldoshev va boshqa olimlarning ishlari tahlil qilindi.

Dastlab, D. Mingboevaning "Timsolar tilsimi" asarida obraz va ramz tushunchalari o'zaro bog'liq estetik kategoriya sifatida yoritilib, badiiy timsollarning mifopoetik ildizlari ochib beriladi [1, 6-bet]. Ushbu

yondashuv quyosh obrazining qadimiy kosmik ramz sifatidagi mohiyatini anglashga metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

D. Quronov va hamkorlar tomonidan yaratilgan "Adabiyotshunoslik lug'ati"da esa metafora, allegoriya va ramz tushunchalarining nazariy izohi berilib, obrazlarning badiiy tafakkurdagi funksional xususiyatlari aniqlanadi [2, 161-bet]. Bu mamba tadqiqotda quyosh obrazining poetik vosita sifatidagi o'rni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Q. Yo'ldoshevning "Yoniq so'z" asarida XX asr o'zbek she'riyatining falsafiy-estetik xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Muallif Shavkat Rahmon ijodidagi obrazlar tizimi, xususan, quyosh timsolining ijtimoiy-falsafiy yuklamasini alohida qayd etadi [3, 242-bet]. Shuningdek, Rauf Parfi she'riyatidagi ruhiy iztirob va metaforik ifodalar ham keng tahlil etiladi [3, 370-bet].

Rauf Parfining "Sakina" saylanmasida quyosh obrazi ko'pincha ruhiy kechinmalar va ichki dramaturgiya bilan uyg'un holda ifodalanadi [4, 69-bet]. Usmon Azim saylanmasida esa ushbu obraz ko'proq hayotiylik, optimizm va insoniy iliqlik timsoli sifatida namoyon bo'ladi [5, 50-bet].

Shavkat Rahmon ijodiga oid manbalarda quyosh obrazi isyonkorlik, ma'naviy uyg'unlik va erkinlik g'oyalari bilan bog'liq holda talqin etiladi [6, 201-bet]. Bu esa shoir poetikasining ijtimoiy-falsafiy yo'nalishini ochib beradi.

Shuningdek, adabiyot nazariyasiga oid zamonaviy tadqiqotlarda (B. Nazarov, N. Karimov, H. Sodiqov) badiiy obrazning funksional imkoniyatlari, uning ramziy va metaforik qatlamlari keng yoritilgan bo'lib, ushbu qarashlar maqola metodologik asosini boyitadi [10, 175-bet; 12, 260-bet].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada Usmon Azim, Shavkat Rahmon, va Rauf Parfi ijodida quyosh obrazining badiiy talqinini o'rganishda bir nechta ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Avvalo, qiyosiy-tahliliy metod asosida uch shoir ijodida uchraydigan quyosh obrazi o'zaro solishtirilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlab berildi. Bu usul orqali har uch ijodkorning badiiy tafakkuri, ramziy tasvir vositalari hamda obraz yaratish mahorati tahlil qilindi. Shuningdek, adabiy tahlil metodi qo'llanilib, shoirlarning she'riy asarlaridagi quyosh obrazining ma'no qatlamlari, ramziy mazmuni hamda poetik funksiyasi o'rganildi. Ushbu metod yordamida obrazning g'oyaviy-badiiy yuklamasi, uning milliy ruh, vatanparvarlik, umid va hayotiylik kabi tushunchalar bilan bog'liqligi ochib berildi. Tadqiqot jarayonida kontekstual tahlil metodi

ham muhim o'rin tutdi. Bu metod orqali quyosh obrazining shoirlar yashagan davr, ijtimoiy muhit va adabiy an'analar bilan bog'liqligi tahlil qilindi. Natijada obrazning nafaqat badiiy, balki ma'naviy va mafkuraviy mazmuni ham yoritildi.

Natijalar. Dastlab Usmon Azim ijodiga to'xtaladigan bo'lsak, shoir ijodining mavzu ko'lami keng. Ayniqsa, tabiat go'zalligi, unga oshnolik ruhida she'rlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoir tabiat hodisalarini va tabiatdagi mavjud narsalarni keltirish orqali hayotda bo'ladigan voqealarga shular asosida yondashadi, o'zining munosabatini bildiradi. Tabiatga munosabatini to'g'ridan-to'g'ri ifoda etibgina qolmay, majoziy tarzda misollar keltiradi. Majoz hozirgi adabiyotshunoslikda ko'chir turlaridan biri, ya'ni allegoriya sifatida qo'llash ommalashgan [1 - 161] Usmon Azim she'rlarini tahlil qilganimizda, uning badiiy olamida quyosh obrazi ko'proq hayotbaxshlik, tabiat uyg'unligi va insoniylik qadriyatlarini bilan bog'liq holda talqin etiladi. Bu she'rlarda quyosh obrazining xalqona ruh, samimiyat va hayotiy optimizm bilan uyg'unlashganini alohida qayd etish mumkin. Uning ijodida quyosh ko'pincha inson qalbidagi iliqlik va mehr timsoli sifatida ifodalangani.

U bahomi kutdi intizor,

Yo'llariga ko'z tutdi ilhaq.

Quyosh chiqsa, erib bitsa qor,

To'yib-to'yib o'ynardi chillak.

Kelib qoldi bahor ham mana,

Dalalarga sochib lolalar.

Tepalikda quvonch-tantana -

Chillak o'ynab ketdi bolalar. [5 - 50]

"Bolalikning so'nggi kunlari" she'ridan olingan ushbu parchada quyosh obrazini iliqlik, umid va hayot ramzi sifatida talqin qilish mumkin. Ayniqsa, quyosh chiqib qor erishi – bu hayotning qayta boshlanishini ifodalaydi. Mazkur she'r parchasida bahor - faqat fasl emas, balki inson qalbining uyg'unishi, quvonch va erkinlikning qaytishi sifatida talqin qilingan. Oddiy tasvirlar orqali chuqur ma'no berilgan bo'lib, ayniqsa quyosh va qor qarama-qarshiligi orqali hayotiy falsafa ochib beriladi.

O'zbek zamonaviy she'riyatida Shavkat Rahmon o'zining falsafiy mushohadalari, ijtimoiy sezgirligi va inson ruhiyatini tahliliga boy asarlari bilan o'chmas iz qoldirgan. Uning she'rlaridagi quyosh obrazi Azim Suyun ijodidan birmuncha farq qiladi. Shavkat Rahmon she'riyatida quyosh obrazi o'zining shiddatli va murosasiz xarakteri bilan ajralib turadi. Olim Qozoqboy Yo'ldoshev "Yoniq so'z" kitobida Shavkat Rahmonning turkiy shon-sharafni tiklash g'oyasi uning quyosh va yorug'likka bo'lgan munosabatida aks etishini ta'kidlaydi. Shoirda quyosh — qonni qizituvchi, g'aflatni haydovchi va kurashga chorlovchi kuchdir. Uning she'rlarida quyosh "qonli", "shiddatli" va "haqqoniy" sifatlarini bilan keladi. [3-242]

Hammamiz quyoshda kuygan jizzamiz,

Qachon tiz cho'kuvdik,

Hamon izzamiz,

Sirqirab og'riydi shishgan tizzamiz,

O'rindan o'zgina tursak maylimu?

O'rganlar bari bek,

Qolgan javdirar,

Gardinda ko'rinmas g'ullar shaldirar,

Mehnatdan yoritilgan qo'llar qaltirar,

O'z bekim yerida yursak maylimu? [6 - 201]

Shavkat Rahmonning ushbu misralari o'zbek she'riyatidagi eng dardli, ayni paytda eng isyonkor parchalardan biri hisoblanadi. Bu she'r shunchaki jismoniy holat haqida emas, balki millatning ma'naviy va siyosiy holati haqidagi achchiq iqrar hamda so'rovdur. "Quyoshda kuygan jizza" metaforasi bilan shoir millatni, xalqni "jizza"ga o'xshatadi. Jizza — go'shtning yog'i batamom erib, faqat qovjiragan qoldig'i qolgan holatidir. Bu xalqning asrlar davomida mustamlaka, zulm va og'ir mehnat ostida ezilganini anglatadi. "Quyosh" bu yerda hayot beruvchi nur emas, balki bor-yo'g'ingni so'rib oluvchi qahraton issiq — ijtimoiy-siyosiy tazyiq ramzidir. Biz o'zligimizdan, kuch-quvvatimizdan ayrilib, faqat "po'stloq" bo'lib qolganimizga ishora.

Har qanday adib ijodining mohiyatini uning shaxsiyatidan qidirgan ma'qul. Negaki, ijodkor hamisha o'z shaxsiyatini doirasida va uning darajasida mavjud bo'ladi. Chunki ijod jarayoni va uning natijasida ham asosan yaratuvchi shaxsning qirralari namoyon bo'ladi. Rauf Parfi she'rlari sinchiklab o'qilsa, shoirning hamishalik norozilik ruhi sezilib turadi. U, birinchi navbatda, o'zidan norozi. Negaki, shoir o'zining nuqsonsiz odam emasligini biladi, ezguliklar qilgisi keladi, ammo bunga imkon

topolmaydi. Dunyo hodisalaridan mazmun talab etadi, lekin o'z shaxsiy hayotiga ham tuzukroq mazmun berolmayotganini anglaydi. Shoir o'z noroziligining sabablari haqida ham o'ylaydi, bu to'g'rida xayolga toladi va shunday badiiy to'xtamga keladi: "Men kuyinib sevaman, netay, Men kuyinib so'zlayman, xolos". [3 - 370]

Daryo mavjlariga yozilmish g'azal,

Maysalar egilib o'qiydir kitob.

Shodlanib xandalar otar bir lahza,

Bir lahza oh tortib qo'yadi oftob.

Qamishlar shivirlar daryo tomondan,

Ko'kda oq bulutlar kezar bemajol.

Bir tirik nafas borliq, jahonda,

Kingadir egilar, qilar iltijo. [4 - 69]

Rauf Parfi ijodiga xos tarzda bu yerda quyosh oddiy yorug'lik manbai emas, balki ruhiy iltirob va ichki ziddiyat timsoli sifatida berilgan. Oftobning oh tortishi uning tirik, his qiluvchi, dard chekayotgan mavjudot ekanligidan dalolat beradi. Bu usul orqali shoir tabiatni inson ruhiyatini bilan uyg'unlashtiradi.

Muhokama. O'zbek zamonaviy she'riyatining yirik vakillari — Shavkat Rahmon, Rauf Parfi va Usmon Azim ijodida quyosh obrazi muhim poetik timsollardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tadqiqot jarayonida ushbu obrazning semantik, estetik va falsafiy yuklamalari qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Shavkat Rahmon she'riyatida quyosh obrazi isyonkor ruh, xalqqa berilgan tazyiqlar va erk ramzi sifatida talqin qilinadi. Shoir tabiat manzaralari orqali inson qalbidagi ichki tug'yonlarni ifodalaydi. Quyosh bu jarayonda yangilanishning boshlanish nuqtasi, ma'naviy yorug'lik manbai sifatida tasvirlanadi. Uning ijodida quyosh g'aflatni haydovchi, kurashga chorlovchi kuch va hayotbaxsh yo'nalishga ega. Rauf Parfi she'riyatida esa quyosh obrazi murakkabroq va ko'p qatlamli mazmunga ega. Tahlil qilingan she'rlarda quyosh ko'pincha ichki iltirob, ruhiy ziddiyat va fojiaiy kechinmalar timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, quyoshning jonlantirilishi ("oh tortishi", "iltirob chekishi") orqali shoir inson ruhiyatidagi keskin qarama-qarshiliklarni ochib beradi. Bu esa Parfi poetikasining asosiy xususiyati — dramatik va falsafiy chuqurlikni tasdiqlaydi. Usmon Azim ijodida quyosh obrazi nisbatan hayotiylik, harakat va energiya timsoli sifatida talqin etiladi. Shoirda quyosh ko'proq ijobiy semantik maydonga ega bo'lib, u inson faoliyatini, jamiyat hayoti va zamonaviylik ruhini ifodalashga xizmat qiladi. Undagi quyosh obrazi boshqa ikki shoirda nisbatan kamroq dramatik, aksincha, faol va dinamik xarakter kasb etadi. Shuningdek, tahlillar quyosh obrazining har uchala shoirda ham personifikatsiya, metafora va ramziy ifoda vositalari orqali yoritilishini ko'rsatdi. Bu esa obrazning poetik imkoniyatlarini keng ekanini va u orqali turli falsafiy g'oyalarni ifodalash mumkinligini tasdiqlaydi. Natija sifatida aytish mumkinki, quyosh obrazi mazkur shoirlar ijodida nafaqat tabiat unsuri, balki inson ruhiyatini, zamon muammolari va falsafiy qarashlarni ifodalovchi universal badiiy timsol darajasiga ko'tarilgan. Uning talqinidagi farqlar esa har bir shoirning individual uslubini, dunyoqarashini va estetik idealini yoritib beradi.

Xulosa. XX asr ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatida quyosh obrazi nafaqat tabiat tasviri unsuri, balki murakkab falsafiy, estetik va ramziy mazmunga ega bo'lgan universal badiiy timsol sifatida shakllangan. Usmon Azim, Shavkat Rahmon va Rauf Parfi ijodida ushbu obraz turlicha poetik talqinlarda namoyon bo'lib, har bir shoirning individual badiiy tafakkuri, dunyoqarashi va estetik idealini yoritishga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Usmon Azim ijodida quyosh obrazi hayotiylik, samimiyat va insoniy iliqlik timsoli sifatida namoyon bo'lsa, Shavkat Rahmon she'riyatida u isyonkor ruh, erkinlik va ma'naviy uyg'unish g'oyalari bilan bog'liq holda talqin etiladi. Rauf Parfi ijodida esa quyosh obrazi ko'proq ichki iltirob, ruhiy ziddiyat va falsafiy mushohadalarning murakkab ifodasi sifatida yuzaga chiqadi. Shu jihatdan, quyosh obrazi ushbu shoirlar ijodida yagona ma'no doirasida cheklanmagan holda, turli semantik qatlamlarga ega dinamik poetik tizim sifatida rivojlangan. Bu esa o'zbek zamonaviy she'riyatining obrazlar tizimi boyligi va badiiy tafakkur kengligini ko'rsatadi. Kelgusida poetik obrazlarning, xususan, quyosh timsolining boshqa ijodkorlar asarlaridagi qiyosiy tahlili o'zbek adabiyotshunosligida ramziylik va metaforiklik masalalarini yanada chuqurroq o'rganishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mingboyeva D. Timsolar tilsimi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 6 b.

2. Quronov D., va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 161 b.

3. Yoʻldoshev Q. Yoniq soʻz. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 242–370 b.
4. Parfi R. Sakina: Saylanma. – Toshkent: Muharrir, 2013. – 69 b.
5. Azim U. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1995. – 50 b.
6. Rahmon Sh. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1997. – 201 b.
7. Oripov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 2000. – 312 b.
8. Vohidov E. Sheʼrlar va dostonlar. – Toshkent: Sharq, 2001. – 280 b.
9. Xudoyberdieva H. Saylanma asarlar. – Toshkent: Sharq, 2005. – 198 b.
10. Karimov N. XX asr oʻzbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2009. – 415 b.
11. Mirvaliyev S., Shokirova R. Oʻzbek adiblari (biobibliografik lugʻat). – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 2016. – 520 b.
12. Nazarov B. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Universitet, 2011. – 260 b.
13. Joʻraev N. Oʻzbek sheʼriyati poetikasi. – Toshkent: Fan, 2014. – 310 b.
14. Sodiqov H. Badiiy obraz va ramziylik masalalari. – Toshkent: Mumtoz soʻz, 2018. – 175 b.
15. Rahimov A. Zamonaviy oʻzbek sheʼriyatida ramz va metafora. – Toshkent: Universitet, 2020. – 210 b.
16. Abdullayev A. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 340 b.